

## TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI KREATIV YONDASHUVNI RIVOJLANTIRISH

**Allamova Shirinoy Qadamboyevna**

UrDU 241- guruh psixologiya

magistranti talabasi

### ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqot jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim jarayonini tashkil etish bosqichlari hamda uning kreativlikni rivojlanishiga ta'siri tahlil qilib o'tildi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish va e'tibor yildan yilga ortib bormoqda.

**Kalit so'zlar:** texnologiya, pedagogik texnologiya, zamonaviy ta'lim, kreativlik

### Kirish

O'zbekiston rivojlanishning yangi bosqichiga o'tgandan keyin Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan yoshlarga alohida e'tibor bera boshlandi. Jumladan, O'zbekiston yoshlarining «Kamolot» ijtimoiy harakati» «O'zbekiston yoshlar ittifoqi» deb o'zgarishi yoshlar masalasidagi islohotlarning boshlang'ich nuqtasi sifatida qaraladi. O'zbekistonda kadrlar tayyorlashning sifat darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shartsharoitlarni yaratish, har bir oliy ta'lim muassasasini jahonning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatishi, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, talabalar, ilmiy-pedagog kadrlarni zamonaviy kasbiy bilimlari va kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish, yoshlar auditoriyasi bilan ish olib borishda interfaol usullardan samarali foydalanish masalalari harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlariga mu

vofiq oliy ta’lim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirishning asosiy vazifalari sifatida belgilandi.

Bugungi kunda ta’lim–tarbiya mazmuni, maqsad va vazifalari davrlar o’tishi bilan kengayib borishi natijasida uning shakl va usullari ham takomillashib bormoqda. Hozirda inson faoliyatining asosiy yo’nalishlari ulardan ko’zda tutilgan maqsadlarni to’liq amalga oshirish imkoniyatini beruvchi yaxlit tizimlar, ya’ni texnologiyalarga aylani b bormoqda. Xuddi shu kabi ta’lim-tarbiya sohasida ham so’nggi yillarda pedagogik texnologiya amal qila boshladi. Pedagogik texnologiya tushunchasi ta’lim-tarbiya amaliyotini rivojlantirish ehtiyojlari asosida kelib chiqqan, va hozirda pedagogika, psixologiya fanlarida o’z o’rniga ega bo’lgan keng ko’lamli serqirra tushunchadir. Pedagogik texnologiyada ishlab chiqarish sohasidagi turli texnologiyalardan farqli ravishda ishlov beriladigan material o’quvchi (ta’lim oluvchi)ning aqliy, ruhiy, axloqiy sifatлари bo’lib, ularga o’qituvchi, tarbiyachi tamonidan ma’lum maqsadlarga erishish yo’lida har turli ta’sirlar o’tkaziladi.

Pedagogik texnologiya – Bu o’qituvchi (tarbiyachi)ning o’qitish (tarbiya) vositalari yordamida o’quvchi (talaba)larga muayyan sharoit va ketma-ketlikda ta’sir ko’rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilangan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayonidir. Qolaversa, bu o’qitishga o’ziga xos yangicha (innovatsion) yondashuvdir. U pedagogikadagi ijtimoiy-muhandislik tafakkurining ifodalaniishi, texnokratik ilmiy ongning pedagogika sohasiga ko’chirilgan tasviri, ta’lim jarayonining muayyan standartlashuvi hisoblanadi.

O’quvchilarni boshlang’ich sinflardan oq interfaol pedagogik texnologiyalarning ular yoshiga mos elementlarini qo’llab darslarni tashkil etish o’quv jarayonini faollashtirish va jadallashtirishda katta ijobiy natijalar berayotganini ko’rsatadi. Interfaol pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslarning afzalliklari shundan iboratki, bunday darslar tizimi tafakkurni charxlaydigan, Vatanga cheksiz muhabbat, sadoqatni, fuqarolik axloqi va demokratik madaniyatni shakllantiruvchi fan asosi bo’lib xizmat qiladi. Fanlarni o’qitishda “Guruhlar bilan ishlash”, “Munozara”, “Muammoli o’qitish”, “Aqliy hujum” kabi metodlar, shuningdek jadvallar bilan ishlash, mustaqil fikrni ifodalaydigan yozma ishlar, insholar yozish o’quvchilar faolligini oshiradi. Bu metodlar asosida olib borilgan ana shunday darslar vaqt tejamkorligi bilan birga, yangi bilimlarni o’quvchiga yetkazib beradi, shuning bilan birga bolani o’ylantiradigan, chuqur mushohadaga undaydigan, butun diqqat e’tiborini o’ziga jalb qila oladigan, muammoli vaziyatlar, bahs-tortishuvlarda to’g’ri xulosalar bilan vaziyatdan chiroyli chiqib keta oladigan

va olgan bilimlarini boshqa mavzular bilan bog‘lab, umumlashtiradigan sharoitga ega bo‘ladi.

Bugungi kunda jahonda ta‘limga kompetentli yondashuv asosida bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, yosh pedagog kadrlarning kreativ kompetentligini rivojlantirish orqali ijodiy ta‘lim jarayonini loyhashtirishning zamonaviy metodik ta‘minotini yaratish, talabalarda kasbiy faoliyat sohalariga yo‘naltirilgan kreativlik qobiliyalarini rivojlantirish, shuningdek oliy ta‘limning ta‘lim sifatini ta‘minlash jarayonidagi ijtimoiy rolini oshirish masalalari dolzarb yo‘nalishlardan biri sifatida tadqiq etilmoqda. Birinchi navbatda kreativlik tushunchasiga to‘xtalib o‘tmoqchimiz Kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma‘nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o‘tkirlikni tavsiflaydi.

Pedagog o‘z-o‘zidan ijodkor bo‘lib qolmaydi. Bunda pedagogning o‘zini-o‘zi ijodiy faoliyatga yo‘naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni echish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e‘tibor qaratishi zarur.

## **XULOSA**

Xulosa qilib shu aytishimiz mumkinki, zamonaviy o‘qitish usullari talabalarning o‘zaro ta‘siri va ularni o‘quv jarayoniga jalb qilish, materialni passiv idrok etishga yo‘naltirish uchun foydalidir usullardan biridir. O‘rganishning chekka shakllarining afzalliklaridan samarali foydalanishga imkon beradigan zamonaviy o‘quv infratuzilmasi, o‘quv, texnologik, tashkiliy komponentlarni o‘z ichiga oladi. har bir innovatsion texnologiya o‘ziga xos afzallik jihatlariga egadir. Bunday usullarning barchasida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlik, o‘quvchining ta‘lim jarayonidagi faol harakati ko‘zda tutiladi.

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC  
INNOVATIVE RESEARCH”**

**Volume 02. Issue 01. January 2025**

Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalar va usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mantiqiy va kreativ fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to'g'ri javob berish malakasi shakllanadi. Darslarning noan'anaviy usullarda, turli metodlarni qo'llagan holda tashkil qilinishi orqali zerikarli mashg'ulotlarning oldi olinadi. Bu esa yosh avlod o'rtasida olishga bilim olishga bo'lgan ishtiyoqning ortishiga, darslarning esa samarali tashkil etilishiga zamin yaratadi.



**Research Science and  
Innovation House**